

YOZMA MATNLARNI LINGVISTIK TAHLIL QILISH USULLARI

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Ilmiy rahbar: dots.

Bazarova D.B.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti

2-kurs talabasi

Dustmirzayeva F.

Annotatsiya. *Maqolada lingvistik tahlil tilshunoslikning turli sohalaridagi nazariy bilimlarga asoslanib, til yoki nutq birliklarini (soʻz yoki gapni) chuqur oʻrganishi, funksional xususiyatlari va jamiytdagi oʻrni, ahamiyati yoritilgan.*

Kalit soʻzlar: *lingvistika, tahlil, nutq birliklari, usul, til, malaka, mavzu.*

Аннотация. *В статье рассматривается лингвистический анализ, который основывается на теоретических знаниях различных областей языкознания и включает в себя глубокое изучение языковых или речевых единиц (слова или предложения), их функциональных характеристик, а также роли и значения в обществе.*

Ключевые слова: *лингвистика, анализ, речевые единицы, метод, язык, квалификация, тема.*

Annotation. *The article discusses linguistic analysis, which is based on theoretical knowledge from various fields of linguistics and includes a deep study of linguistic or speech units (words or sentences), their functional characteristics, as well as their role and significance in society.*

Key words: *linguistics, analysis, speech units, method, language, qualification, topic.*

Lingvistik tahlil – olingan nazariy bilimlar asosida til haqidagi har bir fanning talabiga koʻra aniq bir til yoki nutq birligini (soʻz yoki gapni) parchalab oʻrganish hisoblanadi. Lingvistik tahlilning asosiy vazifasi — tilning har bir jihatini alohida oʻzlashtirish, uning tizimiy tuzilishini, funksional xususiyatlarini va jamiytdagi roli va ahamiyatini aniqlashdir. Bunday tahlil usullari koʻplab tilshunoslik fanlari tomonidan qoʻllaniladi, jumladan, fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika kabi. Ushbu fanlarning har biri tilni oʻziga xos nuqtayi nazardan oʻrganib, tilning turli qatlamlarini oʻrganish imkonini beradi. Boʻlajak oʻqituvchilarning til

hodisalarini tez va to'g'ri ajrata olish malakalarini egallashlarida nazariy bilimlar bilan bir qatorda lingvistik tahlil ham muhim rol o'ynaydi. Lingvistik tahlil – talaba bilimining ko'zgusi. Bilim – turli qoidalar va terminlarni o'zlashtirishdan iborat. Biroq undan amalda foydalana olmasa, u faqat mexanik tarzda yodlangan qoida va terminlardan iborat bo'lib qoladi, xolos.

Tahlilda ikki xil usul mavjud bo'lib, har ikki usulning ham o'z afzalliklari bor. Og'zaki tahlil kam vaqt talab qiladi, talabaning lingvistikadan olgan bilimini qisqa muddat ichida aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, tahlil qilayotgan talabaga agar u xatolarga yo'l qo'ysa, o'z vaqtida yordamlashish imkoniyati ham bo'ladi. Tahlilning bu usulidan dars jarayonida ko'proq foydalaniladi.

Yozma lingvistik tahlilning ham o'ziga xos ijobiy tomonlari bor. Yozma tahlil qilayotgan talaba bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Hatto, u nazariy materiallardan ham foydalanishi mumkin. Yozma lingvistik tahlil ko'proq uy vazifasi qilib beriladi.

Lingvistik tahlil til hodisalarini qamrash chegarasiga qarab to'liq va to'liqsiz tahlil deb ham ajratiladi. Matnni to'liq lingvistik tahlil qilish ko'p vaqt talab qiluvchi murakkab ishdir. Matnni til haqidagi fanning hamma tarmoqlari bo'yicha tekshirish, tom ma'noda, to'liq lingvistik tahlil hisoblanadi. Dars jarayonida bunday tahlildan foydalanib bo'lmaydi. Umuman, bunday tahlilga ehtiyoj ham sezilmaydi. To'liq lingvistik tahlildan seminar mashg'ulotlarda, tilni chuqur o'rganuvchi to'garaklarda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ishimizda biz «to'liq lingvistik tahlil» tushunchasini ma'lum bir tarmoq, bo'lim yoki turkumga nisbatan ishlatdik: to'liq morfologik tahlil, to'liq sintaktik tahlil kabi.

Lingvistikaning biror tarmog'i yuzasidan o'tkaziladigan to'liq tahlil shu predmet uchun berilgan soatlarning oxirgi qismida yoki tilshunoslikning boshqa keyingi tarmoqlari o'rganilayotganda o'tkaziladi. Masalan, to'liq fonetik tahlil fonetikadan berilgan hamma mavzular o'rganilib bo'lgach yoki orfografiyadan bo'ladigan darslar orasida o'tkazilgani ma'qul. To'liq tahlildan yozma ish sifatida foydalanilsa ham bo'ladi.

To'liqsiz tahlil ma'lum bir tarmoqning ayrim mavzulari yuzasidan o'tkaziladi. Masalan, «Ot haqida ma'lumot», «Atoqli va turdosh otlar» mavzulari o'tilgandan so'ng to'liqsiz tahlil o'tkaziladi. Bunda diqqat uch masalaga qaratiladi: ot, atoqli ot, turdosh ot. Bundan keyingi tahlil darslarida e'tibor qaratiladigan masalalar soni oshib boraveradi, ya'ni ot, otning ma'no turlari (atoqli, turdosh, aniq, mavhum, yakka, jamlovchi

otlar), otlarda son, egalik, kelishik kategoriyalari kabi. To'liqsiz tahlilni ma'lum bir kichik matnning o'zigagina bog'lab o'tkazishning didaktik nuqtayi nazardan ahamiyati kam. Oldin o'tgan, shu mavzuga aloqasi bor materiallarni ham tahlil talabiga kiritish kerak.

Masalan, kelishik yuzasidan bo'ladigan tahlil darsida faqat kelishik qo'shimchalari va ularning ma'nosiga e'tibor berish shu mavzuni unga (kelishiklarga) aloqador oldingi soatlarda o'tilgan mavzulardan uzib qo'yadi. Ot turkumi bo'yicha kelishik kategoriyasiga qadar o'tilgan materiallarni o'rganishni ham tahlil talabiga kiritish o'rinlidir. Bunda oldin (birinchi rejada) kelishik affikslari va ularning ma'nosi, so'ng (ikkinchi rejada) otning ma'no turlari hamda boshqa kategoriyalari tahlil etiladi. To'liqsiz tahlildan har bir amaliy mashg'ulot darslarida foydalanib, vazifalar soni oshirib borilaversa, talabaning bilimi qat'iylashib, kengayib, mustahkamlanib boradi.

Ma'lumki, til materiallari tahlili ilmiy va metodik adabiyotlarda «Grammatik tahlil» nomi bilan yuritilib kelmoqda. Biroq bu termini tushunishda bir xillik ko'rinmaydi. Maktabda tahlil muammosini keng o'rgangan olimlarimiz grammatik tahlil deganda faqat morfologik va sintaktik tahlilni tushunadilar. Biz ham grammatik tahlil deyilganda, morfologik va sintaktik tahlilni tushunishni to'g'ri deb bilamiz. Grammatika morfologiya va sintaksisdan iborat ekan, grammatik tahlil ham shu tarmoqlarni o'z ichiga olishi kerak. Garchi fonetikasiz grammatika bo'lmasa-da, u grammatikaning tarkibiy qismi emas. Etimologik, stilistik tahlillar haqida ham shu xilda gapirish mumkin. Demak, tahlilning morfologik va sintaktik turlaridan boshqa turlarini ham o'z ichiga olgan ishni, ravshanki, «grammatik tahlil» deb atab bo'lmaydi. Shunday ekan, uni qanday nom bilan atash kerak? By lingvistik hodisani fanning umumiy nomiga moslab, «lingvistik tahlil» deb yuritish eng ma'qul yo'ldir. Bunday nomlashda, nazarimizda hech qanday qarama-qarshilik sezilmaydi. Aksincha, «grammatik tahlil» terminiga qaraganda u umumlashtiruvchi xususiyatga ega va tilshunoslik fani tarmoqlarining hammasini o'zida mujassamlashtiradi.

Dars turi sifatida lingvistik tahlil ma'lum didaktik va metodik talablarga javob berishi lozim. Lingvistik tahlil til haqidagi fanning har bir tarmog'i uchun tuzilgan dastur talabiga to'la mos bo'lishi kerak. Uning oldiga ham til haqidagi fanlarni o'qitish oldiga qo'yiladigan metodologik va metodik talablar qo'yiladi.

Lingvistik tahlil oldiga qo'yiladigan prinsipial talablar quyidagilar: 1. Ilmiylik prinsipi. 2. Ma'lum sxema asosida ish ko'rish prinsipi. 3. Bir tur

tahlilni boshqa tur tahlil bilan aralashtirib yubormaslik prinsipi. 4. Tahlilni sistematik o'tkazib yuborish prinsipi.

Tahlilda ilmiylikka amal qilish prinsipi juda muhim bo'lib, til hodisalariga aniq munosabatda bo'lishdan kelib chiqadi. Ilmiylik - til hodisalarining tabiatini to'g'ri ko'rsatish, qanday mavjud bo'lsa, shunday ta'riflash demakdir. Har bir til hodisalariga aniq yondashish, uning boshqa hodisalarga munosabatini, uzoq yoki yaqinligini: ayrim yoki umumiylikni ko'rsatish til faktlariga ongli munosabatda bo'lishi talab etadi. Til faktlarini tarixiy nuqtai nazaridan yoritish ham ilmiylik talabidir.

Ikkinchi prinsip belgilangan tahlil sxemasi bo'yicha talabaning mustaqil harakat qilishini talab qiladi. Xuddi shu prinsip orqali talabaning nazariy bilimlarni qay darajada egallaganligi kuzatiladi. Ma'lum sxema asosida erkin tahlil eta bilish malakasini hosil qilish prinsiplar ahamiyatga ega. Tahlil sxemasi yaxshi o'ylangan, tarmoq, fan yoki ayrim kategoriyalarning asosiy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi, sodda, tushunarli bo'lmog'i kerak. Sxema qismlarini o'ta murakkablashtirib yuborish tahlilning ma'nosi va prinsiplarini tushunishni qiyinlashtiradi.

Har bir tahlil turining maqsadi va chegarasi qat'iy bo'lmog'i zarur. Bu talabga bir xil tahlil bilan boshqa tahlilni aralashtirmaslik ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Lingvistik tahlilni sistematik o'tkazib borish prinsipi ham pedagogikaning didaktik talablaridan kelib chiqadi. Tahlil orqali til fanidan talabalarni chuqur bilimli qilib bo'lmaganidek, oldingi bilimlarni ham yaxshi aniqlash mumkin emas.

Lingvistik tahlil uchun misol tanlashda quyidagi tartibga amal qilish talab etiladi:

A) alohida til birligi tanlanadi: tovush, so'z, so'z birikmasi, gap va hokazo:

V) ma'lum kontekst tanlab, shu matn ichidan til birligi yoki til birliklari olinadi: so'z, uning fonetik yoki morfologik tuzilishi o'rganiladi, so'z birikmasi yoki gap bo'lagi tanlanib sintaktik xususiyatlari o'rganiladi:

S) ma'lum kontekst tanlanib, u yaxlitligicha o'rganiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ona tili mashg'ulotlarida matn ustida ishlashning o'ziga xos foydali tomonlari mavjud. Matn usida ishlash jarayonida o'quvchi faqat matnni o'qib chiqish bilan cheklanmaydi, balki uni tahlil qilish, fikrlarini tizimli tarzda ifodalash va o'z fikrlarini izohlashni o'rganadi. Shu bilan birga matn usida ishlash o'quvchilarga

tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchi matndagi muhim ma'lumotlarni tanlab olib, ularni qayta ishlash va turli nuqtayi nazarlardan baholashga o'rganadi. Bu esa, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov A, Ne'matov Q. Ona tili ta'limi mazmuni. –T.: O'qituvchi. 1998. 35 b.
2. Ziyodova T. O'qituvchi kitobi. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. 130 b.
3. Mahmudov N., Nurmanov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –T.: O'qituvchi. 1995. 235 b.
4. A. G'ulomov, Ne'matov Q. Maktabda til sathlarini bog'lab o'rganish. –T.: O'qituvchi. 1992. 284 b
5. Bazarova, D. (2022). Variability of phraseological units. Science and innovation, 1(B7), 483.
6. Bozorova, D. B. (2015). Some notes of variability in the Uzbek linguistics. Theoretical & Applied Science, (4), 135-138.
7. Bazarova, D. B. (2023). On the use of alternative words. American Journal Of Philological Sciences, 3(05), 48-51.
8. Bazarova, D. (2024). Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan. O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 88-90.
9. Шерали кизи ассистент-преподаватель, М. А., & Бахора, Э. О. (2024). Сравнение онегина и обломова: два пути «лишних людей». Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(11), 6-12.
10. Аликулова, М. (2024). Лингвистические особенности повестей аи куприна 1890-1910 годах. Namkor konferensiyalar, 1(2), 502-504.
11. Аликулова, М. (2023). Использование эпитетов в произведениях аи куприна. Scientific progress, 4(5), 387-390.
12. Aliqulova, M. (2024). Анализ изучения языка и стиля произведений аи куприна. O 'zbek tilining xorijda o 'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 1(01), 82-87.
13. Аликулова, М. Ш. (2023). Лексико-семантические особенности рассказов александра куприна. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(12 Part 2), 172-174.
14. Makhmudova Mukhabbat. (2024). The use of paronymous words in speech. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research,

11(12), 196–199.

15. Bazarova, D. B. (2024). Til tizimidagi soʻz variantlari va ularning kommunikativ roli. *Innovation in the modern education system*, 5(47), 363-366.

16. Baxronovna, B. D. (2024). On taye artistic skills of erkin vahidov (as an example of the " Dream World" collection). *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 31-35.

17. Hayitova, S., & Bazarova, D. (2024). 5-sinf “adabiyot” darsligidagi maqollar mavzusini oʻrganish. *Hamkor konferensiyalar*, 1(2), 518-520.

18. Ergashevna, Y. N., & Baxronovna, B. D. Taʼlim rus tilida olib boriladigan maktablarda lugʻat ustida ishlash usullari. *Oʻzbek tilining xorijda oʻqitilishi: taʼlim nazariyasi va amaliyoti*, 205.

19. Maxmudova, M. (2024). Boshlangʻich taʼlimda matn yaratish koʻnikmasini rivojlantirishning ahamiyati. *Innovation in the modern education system*, 5(47), 367-371.